

## **"BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING EKOLOGIK BILIMINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI"**

**Mirzaqobilova Shahnoza**

Namangan viloyati Namangan shahar

85-sonli umumta'lim maktabi

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Komponentli yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekologik bilimini rivojlantirish texnologiyalari haqida fikr bildirilgan.

**Kalit so`zlar:** texnologiya, ma`naviy-axloqiy me`ros, ekologik ta`lim.

Respublikamizning siyosiy, iqtisodiy, ma`naviy yo'nalishlarini rivojlantirishda xalq ta'limi tizimini takomillashtirish, ayniqsa, boshlang'ich ta'lif bosqichi ish faoliyatini yuqori darajaga ko'tarish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki kelajagimizning taqdiri hozirgi kunda boshlang'ich ta'lif bosqichida ilm olayotgan o'quvchilarining tarbiyasiga bog'liqdir. Tarbiyada xalqning milliy va ma`naviy qadriyatlariga suyanish, ular orqali 1-4-sinf o'quvchilarida milliy qadriyatlarni shakllantirish-o'ta dolzarb masalalardan biridir. Chunki bugungi kunda mafkuraviy poligonlarda yoshlar ongi va qalbi uchun kurash keskinlashgan bir paytda o'quvchilarni iloji boricha, maktab yoshidanoq tabiatni sevishga, unga to'g'ri munosabat bildirishga, insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga o'rgatish bugungi kunning dolzarb masalasidir. Mustaqillik, umuman, xalq qadriyatlariga, xususan, xalq og'zaki ijodiga bo'lgan munosabatda keskin ijobiy o'zgarish yasadi. Respublikamizning birinchi Prezidenti Islom Karimovning "O'zbekiston buyuk kelajak sari" asarining "Mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma`naviy-axloqiy negizlari" deb atalgan bo'limida: "O'zbekistonni yangilash va rivojlantirishning yo'lli to'rtta asosiy negizga asoslanadi, - deyilgan. Bu negizlar:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma`naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi; - vatanparvarlik."- deb belgilab qo'yilgan.

Qayd etilgan to'rt negizning har bittasi yo'bevosita, yoinki bilvosita xalq og'zaki ijodi, ajodolarimizning bizga qoldirgan ma`naviy boyligi - pand, o'gitlari, el-u yurt, xalq qadrini e'zozlash, milliy g'ururni himoya qilishdek oliy maqsad va g'oyalar bilan bog'lanadi.

Tabiatni asrash, uni muhofaza qilishga o'rgatish, umuman, ekologik tarbiya berish bugungi kunning dolzarb masalasidir. Shu bois boshlang'ich sinf o'quvchilariga barcha predmet darslarida ushbu tarbiya elementlarini o'quvchilarga singdirish orqali ularda ekologik madaniyatni shakllantirish mumkin. Bunday o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish yaxshi samara beradi. O'qituvchi o'quvchilarining bilish faoliyatini tashkil etishda ularning xohishiga ko'ra individual tarzda, juftlikda yoki kichik guruhlarda ishslash shakllaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Shuningdek, uy vazifalari ham hamma uchun yagona va majburiy bo'lmasdan, bir necha variantda tayyorlanishi va o'quvchilar o'z xohishiga ko'ra tanlashlari mumkin. Masalan, 1-variantda yangi mavzu yuzasidan o'quv materialini tayyorlash, savollarga javob topish, ob'ektning rasmini chizish; 2-variantda o'quv materiali mazmunidagi atama va tushunchalardan foydalanib krossvord tuzish; 3-variantda qo'shimcha adabiyotlardan foydalanib, tabiat haqida hikoya tayyorlash. Uy vazifalarining bunday shaklda berilishi o'quvchilarga o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda avval uy vazifasining yengilroq variantini, keyin murakkabroq variantini bajarishga o'tish, o'z kuchi va bilimini

sinab ko'rish imkonini beradi. O'quvchining bu boradagi har bir yutug'i o'qituvchi tomonidan o'z vaqtida rag'batlantirib turilishi, yutuq va kamchiliklarning qayd etilishi, kamchiliklarni barham etish maqsadida uyushtirilgan yordam o'z samarasini beradi. Ta'lim-tarbiya sohasida pedagogik munosabatlarni demokratlashtirish uchun o'qituvchi: - o'quvchilarning bilish faoliyatini samarali tashkil etish va boshqarish usullari; - o'rganiladigan mavzuning didaktik maqsadidan kelib chiqqan holda turli qiyinchilikdagi o'quv topshiriqlari va ularni bajarish yuzasidan ko'rsatmalarni tayyorlash ko'nikmalar; - o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyati va olingan natijalarni tahlil etish, tegishli hollarda zarur o'zgartirishlar kiritish usullari; - turli pedagogik muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va ulardan eng oqilona usullarni egallagan bo'lisi lozim. Pedagogik texnologiya jarayonini o'rganishning soddalashtirilgan tartibini quyidagicha tushunish mumkin: - tushuntirish – o'quv materialining ma'no-mazmunini, undan foydalanish tartibini o'zi tushungan darajada boshqalarga yetkazish faoliyatidan iborat jarayon; - tushunish – o'quv materialining ma'no-mazmunini idrok qilish, undan ko'rsatilgan tartibda mustaqil foydalana olish; - o'rgatish – axborotdan foydalanish va turli harakatlarni ko'rsatilgan tartibda mustaqil bajarish ko'nikmalarini egallah; - o'zlashtirish – tushunish, o'rganish orqali o'quv materialining ma'nomazmunini, undan foydalanish yoki harakatlarni bajarish tartibi to'g'risida bilim va ko'nikmalar hosil bo'lisi. O'zlashtirish shartli ravishda quyidagi uchta darajaga ajratiladi:

- 1) o'rgatilgan bilim, ko'nikmalarini to'g'ri takrorlash.
- 2) ularni amaliy faoliyatda qo'llash, ulardan tegishli maqsadlarda foydalanish imkoniyatiga ega bo'lisi;
- 3) ularni ijodiy tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish asosida takomillashtirish faoliyatini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lisi; Shu bilan birga, pedagogik texnologiyalarning hammasida ham birdek qo'llaniladigan va ta'lim-tarbiya jarayonining tarixiy tarkib topishida va rivojlanib borishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan asosiy tarkibiy elementlar so'zlash, ko'rsatish va mashqlar bajarishdan iborat bo'lib, ular o'zaro quyidagicha ketma-ketlikda va bog'liqlikda amal qiladi. Agar o'quvchilarning o'qish motivlari, mashg'ulotlarning boshidan oxirigacha diqqatini jamlashi, eslab qolishi, xotirada saqlashi va o'rganganlarini amalda mustaqil qo'llay olishi kabi ko'rsatkichlari muntazam ravishda masalan, 100 foiz bo'lganda edi, ana shundagina ularning o'zlashtirishlarini nazorat qilishga vaqt sarflamaslik mumkin bo'lar edi. Lekin amalda bunday emasligi hammaga ma'lum, shu sababdan hozirda nazoratning reyting usulini yanada takomillashtirgan holda amalga joriy qilinmoqda. Mavjud pedagogik texnologiyalar aslida yuqorida aytilgan so'zlash, ko'rsatish, mashqdan iborat uchta tarkibiy elementning har turli kombinatsiyalarini tashkil qiladi. Ular bir-biridan ta'lim-tarbiyaning ayrim yo'naliishiga, mazmuniga va usullariga alohida e'tibor berilgani hamda unga muvofiq maqsadlarga qaratilgani bilan farqlanadi. Har qanday tarbiya turi singari ekologik tarbiya ham bolaga dastavval oilada, so'ng maktab partasiga ilk bora o'tirishni o'rganganidanoq o'rgatib boradi. Ekologik tarbiyani nafaqat tabiatshunoslik yoki ekologiya darslarida, balki barcha dars soatlarida amalga oshirish mumkin. Masalan: boshlang'ich sinflarning ona – tili danslarida, bиринчи синфда mashqlarni bajarish jarayonida bevosita qushlar, gullar bilan bog'liq kichik hajmdagi sodda matnlarni yozdirish bilan birga ularning mohiyatini bola ongiga to'g'ri yetkazish orqali ekologik tasavvurlarini boyitish mumkin. 1-2 sinflarning "O'qish kitobi" darsligida tabiat fasllari – bahor, yoz, kuz, qish oylaridagi tabiat tasviri, undagi o'zgarishlar, vatanimizning betakror tabiat, qush va hayvonlar haqida tushunchalar berilgan. O'qituvchi bolalarning yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda maqollar, she'r, hikoyalardan misollar keltirib o'quvchilarning ekologik tasavvurlarini yanada kengaytiradi.

Bugungi kun ta'lim-tarbiysi, istiqlol mafkurasi ana shu merosdan oziqlansa, uning eng yaxshi sahifalarini, qoidalarini qabul qilsa, o'z oldiga qo'ygan maqsad-vazifalarini sharaf bilan bajarishi mumkin. Chunki insonni har tomonlama tarbiyalash, kamolga yetkazish,

ma'naviyatlarimizning ustuvor iyemon-e'tiqodlarimizning butun bo'lishligini, qadrli qadriyatlarimizning qadrlanishi guvohidir. Ta'lim-tarbiya jarayonini isloh qilish, uning mazmunini milliyashtirish va insonparvarlashtirish o'quv muassasalarining ustuvor yo'halashlaridan biridir. Shuning uchun ham bu masalalarni hal etishda o'zbek xalq og'zaki ijodiyotining ta'lim-tarbiya sohasidagi o'rni katta. Ta'lim-tarbiya jarayoni aniq maqsadga ko'ra tashkil etishning assosiy shakllaridan biridir. Boshlang'ich sinflarda o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalaridan kiritilgan o'quv fanlari va darsliklari ko'p. Bular o'qish, ona tili, odobnomalar, musiqa kabi darslardir. Ushbu o'quv predmetlari dasturlari mazmuni o'zbek xalqining milliy, ma'naviy -axloqiy meroslariga boy. Aslida, avlod-ajdodlarmizni barkamol kishilar qilib tarbiyalab kelgan birinchi va to'ng'ich pedagog o'qituvchi xalqidir. U asrlar davomida bola tarbiyasi sohasida katta tajribaga ega, uning bugungi kundagi o'rni ham beqiyosdir.

**Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. Umurova, M. Y., & Nurullaeva, N. K. (2020). ТЕОРИЯ И МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ (ПО ОБЛАСТИЯМ И УРОВНЯМ ОБРАЗОВАНИЯ). Проблемы педагогики, 40.
2. Yorievna, U. M. R., & Karimovna, N. N. (2020). Innovative approach to the development of musical abilities in children with disabilities health opportunities. Проблемы педагогики, (2 (47)).
3. Yoshiyevna, U. M. R., & O'G'Li, R. A. R. (2021). MUSIQA MADANIYATI DARSALARIDA "VENA KLASSIK MAKTABI" NAMOYONDALARI HAYOTI VA IJODIYIY FAOLIYATI BILAN TANISHTIRISH USLUBLARI. Scientific progress, 1(3).
4. Yoshiyena, U. M. (2020). THE IMPORTANCE OF USING PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN SPECIAL EDUCATIONAL SCHOOLS. Вестник науки и образования, (22-2 (100)).
5. Rajabov, A. (2020). The development of music and instrumental performance in Central Asia. International Journal of Applied Research, 6(5).
6. Radjabov, A., & Kenjabonu, T. (2021). CONTENT OF PREPARATION OF STUDENTS FOR DEVELOPMENT IN ACCOUNT PROCESS. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 1(01), 54-61.